



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Strategiya bosh direktori:
B.Raxmatov

«22» dekabr 2025 y.
№ 375

Texnik topshiriq
Ijtimoiy tarmoqlar uchun videomahsulotlar tayyorlash

No	Nomi	Talab
1	Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Manzil	100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'chasi, 18-A
3	Xizmat nomi	Ijtimoiy tarmoqlar uchun videomahsulotlar tayyorlash
4	Moliyalashtirish manbai	Bankning o'z mablag'lari
5	Texnik talablar	Asosiy talablar: - Videomateriallar Reels formatida; - Har bir video auditoriyaga tushunarli, dinamik va kreativ bo'lishi; - Video qiymatiga sur'atga olish, akter va aktrisalarni yollash, montaj, ssenariy tuzish, ovoz berish, musiqa tanlash kiradi; - Milliy mentalitetga mos, zamonaviy trendlar asosida yaratilgan bo'lishi; - Har bir video bankning brend-guide (logotip, ranglar, shriftlar) asosida ishlanishi; - Video o'lchamlari: 1080x1920 (9:16); - Davomiyligi: 30–80 soniya; - Video sifati: kamida Full HD (1920x1080); - Format: Reels (Instagram, Facebook), Shorts (YouTube), TikTok formatlariga mos; - Subtitrlar o'zbek va rus tillarida (zarurat bo'lsa ingliz tilida ham); - Har bir videomaterial uchun: ssenariy, storyboard ishlab chiqish; professional kamera orqali sifatli suratga olish; montaj va motion design, grafik elementlar, titrlar, subtitrlar qo'shish; ovoz berish va musiqiy fon tovush yozish; brend elementlarini qo'shish. Kontent yo'nalishlari: - Bank xizmatlari va mahsulotlari haqida qisqa, tushunarli

		videolar; - Mijozlar uchun foydali moliyaviy maslahatlar; - Bank loyihalari va tashabbuslari; - Qiziqarli va trend formatlar; - Ijtimoiy aksiyalar va jamiyat uchun foydali tashabbuslar. - Har bir ssenariy, akter va aktrisalar buyurtmachi bilan oldindan kelishilishi lozim.
6	Videomahsulotlar soni	25 dona
7	Yetkazib berish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 kalendar kuni
8	To'lov shartlari	Shartnomaning 100% miqdori buyurtmachi tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 bank kuni ichida to'lab beriladi.
9	Kafolat muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 kalendar kun ichida

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=fR39dK55&id=c5c88ad1-4e12-4c8b-b4da-3e27156d2cb6>